



Mustafaqulov Asatulla Asrorovich,
Jizzax politexnika instituti "Professional ta'lim" kafedrası dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KADRLAR TAYYORLASH SIFATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqola yildan yilga sifatli ta'lim olishni xohlovchilar sonining keskin oshib borayotganligi, ta'lim oluvchilarning o'qish ehtiyojlari kengayib borishi, yangi mutaxassisliklarning paydo bo'lishidan kelib chiqqan holda oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini boshqarish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni takomillashtirishning ayrim masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ta'lim sifati, ta'lim sifatini boshqarish, zamonaviy tendensiyalar, bazaviy fanlar, massifikatsiya, internatsionallashuv, masofaviy ta'lim, diversifikatsiya, sifat parametrlari.

Аннотация. Данная статья посвящена некоторым вопросам повышения качества образования в системе высшего образования и подготовки конкурентоспособных кадров в связи с резким увеличением количества желающих получить качественное образование, растущим учебным потребностям студентов, появлением новых специальностей.

Ключевые слова: высшее образование, качество образования, управление качеством образования, современные тенденции, фундаментальные науки, массификация, интернационализация, дистанционное обучение, диверсификация, параметры качества.

Annotation. This article is devoted to some issues of improving the quality of education in the system of higher education and training of competitive personnel in connection with a sharp increase in the number of people who want to receive a quality education, the growth educational needs of students, and the emergence of new specialties.

Key words: higher education, quality of education, quality management of education, modern trends, fundamental sciences, massification, internationalization, distance learning, diversification, quality parameters.

Kirish. Jahonda qabul qilingan zamonaviy ta'lim konsepsiyasida ta'lim tizimini boshqarish, ta'lim sifatini baholash jarayoni, vositalari hamda texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb vazifa etib belgilandi. Oliy ta'lim tizimida ta'limning internatsionallashuvi, talabalarning xalqaro mobilligi, ta'lim dasturlarining tez o'zgaruvchanligi bilan bog'liq global tendensiyalar hamda ta'lim sifatini zamonaviy boshqarish texnologiyalarini joriy etish orqali ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etib bormoqda

Shu jumladan, Yevropada Bolonya jarayoni – oliy ta'limda internatsionallashish jarayoni sifatida, ya'ni oliy ta'limning Yevropa makonini yaratish maqsadida vujudga kelgan bo'lsa, bugun mintaqadagi ta'lim paradigmasining almashinuvi Bolonyaning muhim merosi sifatida e'tirof etilmoqda. Bolonya jarayonining o'zi ham global xarakter kasb etmoqda. Eva Egron-Polak ta'kidlaganidek, "...jarayon butun dunyoda misli ko'rilmagan e'tiborni jalb qilishni davom etmoqda. Aytish mumkinki, u hech bo'lmasa qisman o'z maqsadlaridan biriga erishdi – Yevropa

oliy ta'limini boshqalar uchun jozibali qilish. ... Bolonya jarayoni va uning natijalari Yevropa chegaralari ortida juda ham ijobiy ko'rinmoqda – hatto, Yevropaning o'zidan ko'ra ulkan darajada”.

Filipp Dj.Altbax, Liz Raysber va Lora Ramblelar tomonidan yozilgan asosiy ma'ruzada oliy ta'limning global yo'nalishlariga quyidagicha qisqa ta'rif beriladi. Avvalambor, ular o'z miqyosi, xilma-xilligi va jarayon dinamikasi bo'yicha oxirgi yarim asrda oliy ta'limda ro'y berayotgan misli ko'rilmagan *akademik inqilob* to'g'risida fikr bildirishgan. Massifikatsiya hodisasi to'g'risida so'z yuritib, ular butun dunyo oliy ta'lim tizimining bu hodisaga qay tarzda javob berishini tahlil qilishadi. Massifikatsiyaning o'zi aholining o'sib borayotgan qismi uchun katta ijtimoiy mobilligi, oliy ta'limni moliyalashtirishning yangi modellari, ko'pgina davlatlarda oliy ta'limning yanada xilma-xil tizimlari, akademik standartning pasayishi bilan tavsiflanadi¹.

Mualliflar nufuzli oliygohlarda cheklangan joylar uchun raqobatning kuchayib borayotgani va eng yaxshi oliygohlarga qabul qilish tartibi hamda mezonlarining murakkabligini ta'kidlashadi. Bir tomondan, raqobat akademik muhitning kuchayish omili bo'lib chiqsa, ikkinchi tomondan, an'anaviy akademik qadriyatlar, oliygohlar missiyasi va butun jamiyatga ziyon yetkazish imkoniyati bilan tahdid soladi.

Oliy ta'limning boshqa global tendensiyalari qatorida mualliflar quyidagicha fikrlar bildirishgan²:

– talabalarning xalqaro mobilligi: ekspertlar fikriga ko'ra, XXI asrda ta'lim eksportlarning eng foydali turiga aylanib, 2025-yilga borib xorijda ta'lim oluvchi talabalar soni 4,9 millionga yetishi, moliyaviy ko'rsatkichi esa 90 milliard AQSh dollariga teng bo'lishi bashorat qilinmoqda;

– ta'lim dasturlarining tez o'zgarish tabiati: ko'pchilik oliygohlarning vazifasi bazaviy fanlarga kamroq o'qitish va yanada keng doiradagi talabalarga kasbiy dasturlarni taklif etish bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Ushbu tendensiya bilan

bog'liq ravishda UNESCO ekspertlari o'quv rejalari va oliy ta'lim maqsadlari bilan aloqador masalalar, ayniqsa, rivojlanayotgan hududlarda dolzarb bo'lib, ularda endi shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlari nafaqat ilmiy va texnik kasblar bo'yicha tayyorlangan mutaxassislarni, balki keng bilimga, ijodiy potensialga ega bo'lgan kuchli yetakchilarga ehtiyojning yuqoriligini ta'kidlashmoqda;

– ta'lim sifatni ta'minlash ahamiyatining ortib borishi ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi an'anaviy hamda yangi tashkil etilayotgan ta'lim muassasalarining tez sur'atlar bilan ko'payib borishi sifat standartlariga nisbatan yangi talablarni qo'yish vazifasini yuzaga keltirmoqda, ko'pchilik davlat va yarim davlat muassasalarining tartibga soluvchi funksiyasi attestatsiya funksiyasiga aylanib bormoqda; asosiy urg'u oliy ta'limning “natijalari”ga qaratilib, baholash bo'yicha ekspertlar ta'lim natijasi sifatida ma'lum maqsadlarga erishgan talabalarni namoyish etuvchi yangi ma'lumotlar va ko'rsatkichlarni izlashadi, “xalqaro munozaralar markazida ta'lim malakalarini taqqoslash” imkoniyatlari o'rin oladi;

– oliy ta'limni moliyalashtirishning o'zgarishi, xususi oliy ta'lim muassasalari sonining keskin oshib borishi, davlat oliy ta'lim muassasalarining xususiylashtirilishi kabilar ham ta'kidlab o'tiladi;

– o'qituvchilik kasbining o'zgarib borishi (ommalashuv jarayoni bilan bog'liq ravishda professor-o'qituvchilar malakasining pasayib borayotganligi; oliy ta'lim muassasalarining professorlari kamayib borishi, boshqaruv vakolatining menejerlar va mansabdorlar tomoniga o'tib borishi universitetlarga kuchli ta'sir o'tkazmoqda);

– axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) keng tarqalishi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yanada yaxshilash uchun imkoniyatlar berishi bilan bir qatorda AKTni amalda qo'llash bo'yicha professor-o'qituvchilar kompetentligining past darajada ekanligi³, AKTdan foydalanish apparat, dasturiy ta'minot, texnik ko'maklashish

¹ Материалы Болонского семинара в городе Генте (19–20.05.08) (Эгрон-Полак Э.) в кн. «Болонский процесс: 2007–2009. Между Лондоном и Левеном / Лувен-ла-Невом» (2009 г.). – С. 67–79. // www.rc.edu.ru

² O'sha asar.

³ Jumladan TDPU professor-o'qituvchilarning 2019-yil AKTdan bilim darajalari tekshirilganda, jami 527 ta o'qituvchidan 278 tasi qoniqarsiz baho olgan. Bu 53 foizini tashkil qilgan.

nuqtayi nazaridan katta qiyinchiliklar va xarajatlarni keltirib chiqarishi va boshqalar.

Maqsad va uni asoslash. Butun dunyo bo'ylab masofaviy ta'limda ishtirok etayotgan talabalar sonini taxmin qilish juda qiyin, ammo millionlab talabalarga ega 24 ta mega-universitetlarning mavjudligi ushbu tendensiya ko'lamidan dalolat beradi.

Asosiy demografik o'zgarishlar nuqtayi nazaridan kelajakda talabalar sonining keskin oshib borishi, xorijiy talabalar salmog'ining o'sib borishi, katta yoshdagi talabalarning ko'payib borishi va boshqalarni keltirish mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida (OTM) o'qituvchilik kasbining xalqaro miqyosga yo'naltirilganligi va mobil tus olishi, faoliyati ko'proq diversifikatsiyalashgan va ixtisoslashgan maxsus mehnat shartnomalari asosida olib borilishi nazarda tutilmoqda. Oliy ta'limning dunyo, mintaqaviy va milliy tizimlari, universitet, uning missiyasi, roli, funksiyalari ham o'zgaradi.

UNESCONing ta'lim tadqiqotlari markazi professori V.Dj.Morgan XXI asrning boshida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda universitetlarning vazifalarini qayta ko'rib chiqish zaruriyati to'g'risida fikr bildiradi⁴.

Oliy ta'limning zamonaviy rolini bilim va ta'lim jamiyati, tadbirkorlik va oliy ta'lim aloqalari, ijtimoiy rivojlanish hamda oliy maktab kontekstida belgilash maqsadga muvofiq bo'lishi ta'kidlanadi.

Oliy ta'lim va bilimlarni ishlab chiqarish sohasidagi universitetlarning global reytingi ta'sirining kuchayishi rivojlanayotgan tendensiyalardan biridir. Oliy ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va ta'lim bo'yicha UNESCO forumiga tayyorlangan 15-sonli hujjat muallifi, ilmiy tadqiqotlar va tadbirkorlik bo'yicha direktor, Dublin texnologiya instituti oliy ta'lim siyosati tadqiqot markazi direktori Elen Xazelkornning fikricha, metodologik kamchiliklarga qaramasdan global reytinglar nafaqat universitetning faoliyatini belgilash, oliy ta'lim bozorini shakllantirish, balki jahon darajasidagi sifat uchun xalqaro miqyosdagi

⁴ John W. Morgan. Lifelong Learning, Entrepreneurship and Social Development: The Role of Higher Education. EURASHE, Prague, 21-23th May, 2009.

raqobat namunasi bo'ldi⁵. Muallif ta'kidlaganidek, reytinglar, ko'pincha, milliy strategik maqsadlarga "poydevor qo'yadi", oliy ta'lim va alohida oliygohlarga nisbatan jamiyat munosabatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Bolonya jarayonining markazida oliy ta'lim sifati turadi. Shuning uchun bugungi kunda Yevropa oliy ta'lim muassasalarida nimalar sodir bo'layotganligi, yuqori akademik standartlar va kreativlikni rivojlantirish borasida qanday ishlar amalga oshirilayotganligi katta qiziqish uyg'otmoqda. Ushbu yo'nalishda Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi tomonidan QAHECA (Quality Assurance for the Higher Education Change Agenda) – Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlari loyihasi doirasida kreativ va innovatsion universitetlar o'qitish sifatini oshirish borasida qanday jarayonlarni amalga oshirayotganligi tadqiq etilgan⁶.

"Sifat madaniyati" loyihasi natijasida ichki sifat tizimi faoliyati samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillar aniqlangan: strategik rejalashtirish, oliy ta'lim muassasasi rahbariyatining sifatni oshirishda yetakchiligi, OTM barcha xodimlari va talabalarini ushbu jarayonga to'liq jalb qilish, tashqi manfaatdor shaxslarni jalb qilish, ma'lumotlar yig'ishning yaxshi tashkil etilganligi va tahlil.

Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, ta'lim sifatini ta'minlash alohida bir kishining faoliyati bilan bog'liq emas, balki oliy ta'lim muassasasining barcha jarayonlarini qamrab oluvchi hamda barcha a'zolariga tegishli bo'lgan faoliyat natijasidir.

QAHECA loyihasi doirasida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan:

Birinchidan, ta'lim sifatini ta'minlash borasida OTM va akkreditatsiya agentliklari o'quv fanlarini (yo'nalishlar bo'yicha ta'lim dasturlari), oliy ta'lim muassasasining tarixini, mintaqaviy va milliy o'ziga xos jihatlarni inobatga olishlari shart.

⁵ Hazelkorn E. Impact of Global Rankings on Higher Education Research and the Production of Knowledge. The UNESCO Forum on Higher Education, Research and Knowledge. November 25, 2008.

⁶ Стандарты и руководства для обеспечения качества высшего образования в европейском пространстве высшего образования (ESG) // Одобрено Конференцией министров в Ереване, 14–15 мая 2015 г. – С. 86.

Ikkinchidan, tashqi va ichki ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlarining markazida OTMning o'zgarishlarga nisbatan qobiliyatlarining takomillashuvchi (rivojlanuvchi) tomon qo'yilishi, bu esa, o'z navbatida, OTM va akkreditatsiya agentliklaridan ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan yondashuvdan foydalanishlarini taqozo etadi.

Uchinchidan, ta'lim sifatini ta'minlash inklyuziv tarzda amalga oshirilishi, ya'ni bu jarayonga OTMning barcha jamoasi jalb qilinishi, akkreditatsiya agentliklari esa oliygohlarni bunday yondashuvni qabul qilishiga undashi zarur.

To'rtinchidan, agentliklar oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda *sifatni ta'minlash jarayonlarida muhim figuralarning* imkoniyatlarini jalb qilish va ochib berishga intilishi lozim.

Beshinchidan, sifatni samarali ta'minlashning zarur shartlaridan biri *oliy o'quv yurtlari va agentliklar o'rtasidagi hamkorlik* hisoblanadi, u ijodkorlikni kengaytiradi. F.Dj.Altbax, L.Raysber va L.Ramblelar tomonidan yozilgan ma'ruzada "... bu sheriklik muhitini va tanqidiy fikrlash ishonchini shakllantiradi, u yangi nimanidir yaratish uchun zamin hisoblanadi. Ishonch oshishi mumkin, masalan, institutsional o'z-o'zini baholash hisobotlarining maxfiyligi va sanksiyalardan tashqari imtiyozlarga asoslangan tashqi sifat kafolati jarayonlarini ishlab chiqish orqali" deya ta'kidlaydi.

Oltinchidan, sifatni ta'minlash tizimlari *oliygohlarga tavakkal va xato qilish huquqini* berishi lozim, ya'ni jamoalarda xatolarni aniqlash va tavakkal qilish, qo'rquvlarni yo'q qilish qobiliyatini rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi. Sifatning tashqi ta'minlanishi oliygohning tasodifiy omadsizliklari uchun sanksiyalarni qo'llashni emas, noto'g'ri vaziyatlarni sezish qobiliyatini tekshirishga yo'naltirishi kerak.

Yettinchidan, *sifatni ta'minlash bo'yicha tajriba almashimuv* turli darajalarda vertikal va gorizontal dialog uchun platformalar yaratishni ko'zda tutadi. Bunda yakuniy hisobotning mualliflari, o'zganing yaxshi yoki yomon tajribasiga taqlid qilib, hech qachon faqat muvaffaqiyatli amaliyotini ko'chirish emas, balki sizning kontekstingizga qo'llash mumkin bo'lgan amaliyotning komponentlarini

tanqidiy tahlil qilishning maqsadga muvofiqligini "unutmaslik lozim", deb yozishadi⁷.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Dunyoda oliy ta'limning asosiy tendensiyalari sifatida oliy ta'limning ommaviy tus olayotganligi, yildan yilga sifatli oliy ma'lumot olishni xohlovchilar sonining keskin oshib borayotganligi, ularning o'qish ehtiyojlarining kengayib borishi o'quv reja va dasturlarini diversifikatsiyalashni taqozo etayotganligi, yangi va yangi mutaxassisliklarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Dunyo bo'ylab yagona ta'lim makonlarining yaratilishi oqibatida o'zaro diplom, ilmiy daraja va malakalarni tan olish, ta'lim dasturlarini o'zlashtirishning yagona kredit tizimini joriy etish, ta'lim sifati va uni baholashning xalqaro tan olingan standartlarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyatlarning intellektual potentsiali yangicha tafakkur turlarini o'zlashtirish bilan bog'liq ravishda innovatsion texnologiyalarni yaratish va amaliyotga tatbiq etishga qodir mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Oliy ta'lim muassasalarida ilm-fan va amaliyotning integratsiyasi asosida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida o'quv, ilmiy-tadqiqot, loyihalash-konstruktorlik kabi faoliyat turlarini hamohang rivojlantirish ahamiyati keskin oshib bormoqda.

Dunyoda uzluksiz mustaqil o'qish va bilim olish, bilimlarning tez "eskirib" qolish sharoitida mutaxassislarning malakasini oshirish va kasbiy qayta tayyorlash zarurati tobora ortib bormoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil qilish va boshqarish yo'llarini talabalar o'quv-bilish faoliyatining passiv obyekti pozitsiyasidan refleksiv-tadqiqotchil sifatidagi aktiv pozitsiyaga o'tkazish bilan bog'liq ravishda takomillashtirish talab etilmoqda. Rivojlantiruvchi hamda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni keng joriy etish, mustaqil ta'lim olishga o'rgatish, AKT va internet imkoniyatlaridan foydalanish muhim shartlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

⁷ Материалы Болонского семинара в городе Генте (19–20.05.08) (Эгрон-Полак Э.) в кн. «Болонский процесс: 2007–2009. Между Лондоном и Левеном / Лувен-ла-Невом» (2009 г.). – С. 67–79.

Oliy ta'lim muassasasida kadrlar tayyorlash sifatini boshqarish borasida dunyoda bugun quyidagi tendensiyalar yetakchi rol o'ynamoqda:

1. Bolonya jarayonlari doirasida Yevropa mamlakatlarida ta'lim sifatini kafolatlovchi yagona mezonlar va standartlarni ishlab chiqish.

2. Yevropa mamlakatlarining ta'lim dasturlarini akkreditatsiyalash milliy tizimini yaratish, rivojlantirish va bir-biriga moslashtirish.

3. TQM – sifatni yalpi boshqarish konsepsiyasi, Xalqaro ISO 9000:2000, ENQA (Oliy ta'limda sifatni kafolatlash Yevropa assotsiatsiyasi), Sifat menejmenti bo'yicha Yevropa fondi modeli hamda boshqa milliy modellar asosida oliy ta'lim muassasasining sifat tizimini ishlab chiqish va joriy etish.

4. Ta'lim jarayonini sifatli boshqarish tizimining sifatini yalpi boshqarish konsepsiyasi tamoyillari asosida tashkil etish.

5. Ta'lim jarayoni sifati va uning natijalarini milliy attestatsiya va akkreditatsiya tizimi asosida tashqi nazorat qilishdan u yoki bu tanlangan model asosida ta'lim muassasasining ichki o'z-o'zini baholash tizimiga o'tish.

6. Tashqi nazorat me'yoriy va ilmiy jihatdan ta'minlanish borasida jiddiy muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, epizodik tarzda miqdoriy ko'rsatkichlarni aniqlashga asoslanganligi sababli mavjud muammo va yutuqlarni to'liq aniqlash, ta'lim sifatini oshirishni rejalashtirish imkonini bermasligini inobatga olish⁸.

Bolonya deklaratsiyasi va Praga Kommyuni-kesida ta'lim sifatining asosiy qoidalari shakllan-tirilgan bo'lishiga qaramasdan, ta'lim sifati butun dunyoda eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kungacha ta'lim sifati mezonlari borasida tadqiqotchilar yagona xulosaga kela olmagan.

Rossiya Federatsiyasi va MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) tadqiqotchilarining ilmiy ishlarida ta'lim sifati tushunchasi mazmunining noaniqligi, asosan, ushbu tushuncha mohiyatining ko'p aspektliligi hamda uni tashkil etuvchi omillarning turli-tumanliligi bilan izohlanadi.

⁸ Yuldashev M.A. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish: doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2016. – B. 92

Ta'lim sifati tushunchasi mohiyati oliy ta'lim muassasasi sifati yoki ta'lim dasturlari sifatini tashkil etuvchi omillar yig'indisi orqali aniqlanishi ham mumkin. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasasi faoliyati natijalari, ta'lim xizmatlari, bitiruvchilar va boshqalar ta'lim sifatini belgilovchi omillar qatoriga kiritiladi.

Xorijiy, MDH va milliy ta'lim tizimlarida ta'lim sifatini baholash obyekti sifatida ta'lim xizmatlari sifati (odatda natijalar asosida baholanadi) qabul qilingan. Bunday yondashuvga ko'ra, ta'lim natijalari va uning sifat parametrlari aynan bir xillikni tashkil etadi.

Bolonya deklaratsiyasi va Praga bayonotida o'quv dasturlari sifatini belgilovchi uchta muhim natija qayd etilgan:

– akademik sifat – tadqiqotlar, o'qitish hamda bilimlarni tarqatish va shaxsni rivojlantirish sohalaridagi mahorat;

– oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining butun umri davomida xalqaro mehnat bozorida ish topish qobiliyati;

– mobillik va shaxsiy moslashuvchanlik⁹.

Ta'lim natijalariga mo'ljallangan sifatning mavjud barcha talqinlarida ta'lim sifati, odatda, shaxsning aqliy, jismoniy, axloqiy rivojiga zamin yaratuvchi bilim, ko'nikma va malakalar prizmasi orqali, ta'lim natijalarining jamiyat ijtimoiy buyurtmasi va iste'molchilar kutishlariga muvofiqlik nuqtayi nazaridan, maqsad va natijalar mutanosibliigi orqali ifoda etiladi va hokazo.

O'zbekiston Respublikasida amaldagi oliy ta'limning davlat ta'lim standartlariga ko'ra mutaxassislar tayyorlash modeli shaxsga yo'naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Ta'lim natijalari sifati ta'lim dasturlari doirasida ma'lum akademik sohaga oid to'plangan bilimlarni tavsiflovchi hamda egallangan kompetensiyalarni o'z ichiga oluvchi ikkita blokdan iborat parametrlar asosida aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifati davlat ta'lim standartlari va malaka talablari orqali nazorat qilinadi. Ular ta'lim dasturlari sifat darajasini belgilaydi. Davlat ta'lim standartlari va

⁹ Байденко В.И. Болонский процесс: середина пути. – Москва: Исслед. центр подготовки специалистов, 2005. – С. 377.

malaka talablariga ko'ra, ta'lim sifati ta'lim jarayoni natijasi kontekstida talabalar va bitiruvchilar bilim darajasining standartlar talablari va bozor ehtiyojlariga mosligi sifatida qaraladi. Sifat borasidagi davlat va bozor manfaatlari davlat ta'lim standartlarida tarkiban hamda mazmunan oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadigan tanlov va elektiv kurslar orqali amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalari faoliyati natijalari, asosan, ta'lim xizmatlari bilan bog'liq bo'lib, ta'lim xizmatlari sifati oliy ta'lim muassasasi faoliyatini baholashning muhim mezonidir.

Xorijiy va MDH oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati boshqarish quyidagi yondashuvlar asosida amalga oshiriladi:

- OTM bitiruvchilarini tayyorlash sifati nazorat qilish;
- OTMda ta'lim jarayoni sifati nazorat qilish;
- OTMda ta'lim sifati monitoring qilish;
- OTMda sifati boshqarish tizimini ishlab chiqish va uning faoliyatini takomillashtirish.

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida TQM – sifati yalpi boshqarish tamoyillari asosida ta'lim sifati boshqarish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish jarayonida yuqorida keltirilgan yondashuvlardan foydalanish ta'lim sifati uzluksiz takomillashtirib borish imkoniyatini yaratadi.

“Oliy ta'lim sifati” tushunchasi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda ta'limning turli maqsadlari, turli iste'molchilari, turli boshqaruv ta'sirlariga yo'naltirilgan fundamental tavsifi sifatida talqin etiladi. Oliy ta'lim sifati ta'minlash, tadqiqotchilar fikriga ko'ra, oliy ta'lim sifati (natijalar, jarayon va ta'lim tizimi sifatida) belgilangan normalar, talablar va standartlardan past bo'lmagan darajada qo'llab-quvvatlab turishni taqozo etadi. Sifat maqsadlariga erishishning muhim omillari, shart-sharoitlari va resurslari qatoriga o'quv-uslubiy vositalar, moddiy-texnik baza, OTM xodimlarining qobiliyatlari, talabalarining motivatsiya va tayyorgarlik darajasi, moliyaviy ta'minot, axborot ta'minoti, xullas, OTM ta'lim faoliyatining barcha asosiy elementlari yig'indisi kiritilgan.

Ta'lim sifati baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

– oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati ta'minlash mas'uliyati, avvalambor, OTMning zimmasida bo'lib, ichki ta'lim sifati ta'minlash tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasini qo'yadi;

– oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati ta'minlash bo'yicha ichki tizimning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun baholash mezonlari komplekslarini ishlab chiqish zarurati paydo bo'ladi. Mutaxassislar tayyorlash sifati ushbu jarayonni obyektiv baholash mezonlari va ko'rsatkichlarning ishlab chiqilganligi hamda joriy etilganligi bilan uzviy bog'liqdir;

– oliy ta'lim sifati ko'pqirrali, integrativ tushuncha bo'lib, o'zida ta'lim maqsadlari, standartlari va normalari sifati, ularga erishish uchun zarur bo'lgan sifatli resurslar (ta'lim dasturlari, professor-o'qituvchilar, moliyaviy ta'minot, moddiy-texnik baza) hamda ta'lim jarayoni sifati (ilmiy, tarbiyaviy, boshqaruvga oid zamonaviy ta'lim texnologiyalari) qamrab oladi;

– ta'lim sifati oliy ta'lim muassasalari faoliyati natijalari, ya'ni talabalarning joriy va yakuniy ko'rsatkichlari, bitiruvchilarning karyerasi, ish beruvchilarning ularning kasbiy tayyorgarligidan qoniqish darajasi bilan belgilanishi ta'kidlanadi;

– oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati boshqarishning samarali mexanizmi sifatida monitoring e'tirof etilib, u ta'lim jarayoni to'g'risida ma'lumotlar yig'ish, ularni tanqidiy tahlil etish, boshqaruv obyektini rivojlantirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda tegishli tuzatishlar kiritish imkoniyatini yaratadi.

Yakuniy qism. Xulosa o'rnida aytish kerakki, oliy ta'lim sifati ta'minlash borasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: oliy ta'limning inson va moddiy resurslaridan samarali foydalanishiga ko'maklashish, ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish va o'quv jarayoniga maksimal darajada joriy etish, oliy ta'lim muassasalarida qabul jarayonini, talabalarni attestatsiya qilish shakl va metodlarini takomillashtirish hamda optimallashtirish, professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish va potensial ish beruvchilar bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga alohida e'tibor qaratish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Байденко В.И. Болонский процесс: середина пути. – Москва: Исслед. центр подготовки специалистов, 2005. – 380 с.
2. Голерова С.Н. Качество профессионально-педагогического образования в университетах Австралии и России: сравнительный анализ // Омский научный вестник. – Омск, 2009. – № 3(78). – С. 159-162.
3. Материалы Болонского семинара в городе Генте (19–20.05.08) (Эгрон-Полак Э.) в кн. «Болонский процесс: 2007–2009. Между Лондоном и Левеном / Лувен-ла-Невом» (2009 г.). – С. 67-79. // www.rc.edu.ru.
4. Стандарты и руководства для обеспечения качества высшего образования в европейском пространстве высшего образования (ESG) // Одобрено Конференцией министров в Ереване, 14–15 мая 2015 г. – С. 156.
5. Yuldashev M.A. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish: doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2016.
6. Hazelkorn E. Impact of Global Rankings on Higher Education Research and the Production of Knowledge. The UNESCO Forum on Higher Education, Research and Knowledge. November 25, 2008.
7. John W. Morgan. Lifelong Learning, Entrepreneurship and Social Development: The Role of Higher Education. EURASHE, Prague, 21-23th May 2009.
8. Шодиев Х., Азизов О.Э. Мотивы педагогико-психологической деятельности, присущие профессии учителя-педагога // Актуальные научные исследования в современном мире. – Переяслав-Хмельницкий, 2016.